Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabr kuni qabul qilingan "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi PF-143-son'li Farmoni dasturilamal vazifasini bajarmoqda. Unga ko'ra, 2024-yilning qolgan davrida 500 ming, 2025-yilda esa 1 million nafar aholini kambag'allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining hamda barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilandi. [1]

Kambag'allikni qisqartirish sohasida erishilgan ijobiy natijalar, to'plangan milliy tajriba hamda ilg'or xalqaro amaliyot asosida har bir fuqaroni o'zi va farzandlari kelajagi uchun mas'uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan «Kambag'allikdan farovonlik sari» dasturi amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu dastur ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika komissiyasi tashkil etiladi. [2]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi daromadining tengsizligi va kambag'allik bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik masalalari A. Smit, D. Rikardo, R. Solou, A. Sen, A. Ditont kabi ko'plab mumtoz klassik hamda neoklassik iqtisodchilar ilmiy asarlarida o'rganilgan. Shuningdek, Nobel mukofoti sovrindorlari tomonidan ham ushbu masala nazariy va empirik jihatdan chuqur tadqiq qilingan. Ular «...yalpi ichki iste'mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa omillar tahlili asosida kambag'allik kam bo'lgan jamiyatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lishini...» ilmiy asosda o'rganib, nazariy jihatdan isbotlashgan.

Gegel kambag'allik va boylikning turli xususiyatlarini ochib bergan. U kambag'allikni shaxsning va umuman jamiyatning ma'lum bir holati sifatida harakat qiladigan ijtimoiy hodisa tarzida ko'rib, «kambag'al sinf», «kambag'allik», «kambag'allashgan omma», «muhtoj» tushunchalarini ilgari surgan. Shuningdek, u kambag'allikning ikki tomonini ajratib ko'rsatgan: birinchisi — obyektiv bo'lib, mavjud sharoitlarga bog'liq; ikkinchisi esa — subyektiv bo'lib, axloqiy subyekt sohasini qamrab oladi.

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilanishi bilan birga, bu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ham jadallashgan. Iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritayotgan olim va mutaxassislar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, N. Ernazarova mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda, ayniqsa, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik sohalarini, jumladan, oilaviy biznesning faoliyati iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, ushbu jarayonda uning yetakchi rolini asoslagan. [10]

Kambag'allik jamiyatda daromadlarning keskin tabaqalanishiga va ijtimoiy ziddiyatlarning chuqur ildiz otishiga sabab bo'ladi. Ushbu muammoning dolzarbligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev alohida ta'kidlab o'tgan: "2020-yil aholini ijtimoiy himoya qilish borasida tub burilish yili bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Avvalo, aholining muayyan qatlami o'rtasida kambag'allik mavjudligini birinchi marta tan olib, uni qisqartirish bo'yicha keng qamrovli ishlarni boshladik. Yangi yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo'ladi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o'sish hisobiga erishiladi" (Mirziyoev, 2020).

Pardaev va Pardaevlar (2020) kambag'allik toifasiga kiruvchi aholini uch guruhga ajratgan: birinchisi, ishsizlar bo'lib, ular tegishli malakaga ega, biroq o'zlariga munosib ish topa olmayapti; ikkinchisi, ish bilan band, ammo olgan oylik maoshi oilasini kambag'allik chegarasidan chiqarishga yetarli bo'lmagan shaxslar; uchinchisi esa ishlash imkoniyatiga ega bo'lmagan (nogironligi bor, mehnatga qobiliyatsiz, boquvchisi yo'q bolalar va qariyalar) aholi qatlamidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda takomillashtirish orqali kambag'allik darajasini qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, kambag'allikni aniqlash hamda kambag'al oilalarni «Kambag'allikdan farovonlik sari» dasturi doirasida kambag'allikdan chiqarish yo'llari tahlil qilingan. Tahlil jarayonini yanada tushunarli va aniq qilish maqsadida maqolada chizmalar hamda jadvallardan foydalanilgan.

1 <https://www.lex.uz/uz/docs/-7109857>



TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda kambag'allik darajasining yuqori bo'lishi tadbirkorlik ravnaqiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bunday oqibatlar, jumladan, aholining xarid qobiliyatining pasayishi, talab tarkibining past narxli segmentga siljishi va umuman olganda, kichik biznes hamda turli tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi ishbilarmonlik muhitiga salbiy ta'siri orqali namoyon bo'ladi.

Respublika miqyosida so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, xususan, mazkur yo'nalishni davlat tomonidan muntazam qo'llab-quvvatlash siyosati davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, mamlakat bo'ylab qancha ko'p tadbirkorlik faoliyati yo'lga qo'yilsa, bu o'z-o'zidan qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Kichik biznesning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining turli soha tarmoqlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq davlat ko'magisiz bu soha tanazzulga uchrashi va kambag'allikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobatni ta'minlash, shuningdek, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi (O'RK). Mazkur omillarni hisobga olib, O'zbekistonda kambag'allikka barham berish strategiyasi ishlab chiqilgan.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida mavjud to'siqlarni bartaraf etish uchun ustuvor yo'nalishlar aniqlab olingan. Davlat siyosatining mazkur ustuvor yo'nalishlar bo'yicha vazifalarni hal etishga qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatib, makroiqtisodiy jihatdan ijobiy natijalar berishi mumkin.

Kichik biznesning rivojlanishi mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq, chunki u asosan yakuniy iste'mol talabiga qaratilgan. Shu bois, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi qiyosiy narxlar o'zgarishi, kichik biznesni tavsiflovchi ko'rsatkichlar va xodimlarning o'rtacha hisoblangan oylik ish haqi dinamikasi aniqlanadi. Ularni o'rganishda korrelyatsiya va regressiya tahlillaridan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki bu usullar yordamida kichik biznes rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar raqamli qiymatlarda hamda dinamik shaklda ifodalanadi. Bu esa xulosalarning ishonchiligi va asoslanganligini oshiradi.

Kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda bank sektorining alohida o'rni mavjud. Aynan banklar kichik biznesning iqtisodiy faoliyatini samarali yuritish uchun zarur moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bank sektori samarali yordam ko'rsatishi uchun ayrim muammolarni hal etish talab etiladi.

Ayni paytda kichik biznes subyektlari, ayniqsa endi faoliyat boshlagan tadbirkorlik subyektlari uchun uzoq muddatli kredit olish jarayoni ancha murakkab. Sababi ular ko'pincha kreditni garov bilan ta'minlash uchun yetarli mol-mulkka ega emaslar. Bundan tashqari, kichik biznesni moliyalashtirish tijorat banklari uchun yuqori tashkiliy xarajatlarni talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan xususiy tadbirkorlarning qisqa va uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz kredit bozori institutsional rivojlanish bosqichida bo'lib, mavjud moliyaviy instrumentlar va xizmatlar turlari cheklangan. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi nobank moliya institutlarining rivojlanmaganligi ushbu holatni yanada murakkablashtiradi. Bu esa real iqtisodiyot tarmoqlarini yetarli darajada moliyalashtirishga to'sqinlik qilmoqda.

Kichik biznes subyektlarining taraqqiyoti hududlarda aholi bandligini ta'minlashga bevosita xizmat qiladi. Ish beruvchilarga ishchilarning yaqin hududlardan shakllanishi ham tashkilot, ham ishchi uchun qulaylik yaratadi. Bunda ishchilar asosan hududdagi ishsiz, ijtimoiy sharoiti og'ir bo'lgan aholi orasidan shakllanadi. Ana shu munosabatlar zanjiri orqali kichik biznes subyektlari kambag'allikni kamaytirishdagi muhim vositalardan biri sifatida qaralmoqda.

Tadbirkorlarning muayyan mahsulotlarni ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyati tadbirkorlik faoliyatini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonunida ta'riflanishicha: «Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat» [3]. Tadbirkorlik faoliyati asosida bir qator shart va talablar mavjud bo'ladi.

Birinchidan, tadbirkor tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish omillarini birlashtirib, «katalizator» vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, u biznesni yuritish jarayonida mustaqil qarorlar qabul qilishdek murakkab vazifani zimmasiga oladi.

Uchinchidan, tadbirkor — tashkilotchi shaxs bo'lib, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etadi va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga intiladi.

To'rtinchidan, u — tavakkal qilishdan cho'chimaydigan insondir.

Tadbirkorlik faoliyatining shakllari xilma-xil bo'lib, ular orasida xo'jalik yuritish ko'lamining cheklangani bilan ajralib turuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o'rin egallaydi. Kichik biznes va xususiy



tadbirkorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'zni bu soha tomonidan bajariladigan vazifalar orqali namoyon bo'ladi. Vazifalarning turli-tumanligi ushbu sohaning jahondagi barcha mamlakatlar, shu jumladan, o'ziga xos ijtimoiy tuzilishga ega bo'lgan davlatlar uchun ham dolzarbligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi — aholining turmush darajasini oshirishdir. Bunga milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tadbirkorlikni muntazam rivojlantirish orqali erishiladi. Tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlash orqali ularning daromadlarini oshirish va turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqning bugungi hayotidan rozi bo'lib yashashini ta'minlashga qaratilgan. Bu borada jamiyatning iqtisodiy negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Muhimi tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirish va faoliyat yo'nalishlarini mustaqil tanlash huquqiga ega bo'lishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. Shunday ekan, mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini ta'minlash, doimiy ish o'rinlari yaratish va kambag'allikni kamaytirishning huquqiy-me'yoriy asoslari mavjud.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, "kambag'allik" tushunchasining iqtisodiy mazmuni — insonning moddiy, moliyaviy va ma'naviy jihatdan eng zarur ehtiyojlarini qondira olmasligi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy holatdir. Bu holat odatda daromad yetishmasligi, jur'atsizlik, kuchsizlik va iqtisodiy ishonchsizlik bilan kechadi. Jamiyat a'zolarining hayotiy munosabatlar va iqtisodiy faoliyatdan chetlanishi bilan izohlanadi. Agar jamiyatdagi shaxslar yoki oilalar resurslar nuqtayi nazaridan o'rta darajadan ancha past holatda bo'lsa va ular hayotiy faoliyatda qatnashmasa, kambag'allik muammosi yuzaga keladi.

Shu o'rinda kambag'allik tushunchasiga ta'rif bersak, kambag'allik bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning iqtisodiy holatining o'ziga xos ko'rinishidir. U ob'yektiv va sub'yektiv sabablarga ko'ra insonning hayot kechirishi, mehnat qobiliyatini saqlab qolishi va nasl qoldirishi uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarning ma'lum qismini ta'minlay olmasligini anglatadi. Ta'kidlanganidek, kambag'allik jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishida bir qator salbiy jarayonlarga sabab bo'ladi. Ulardan biri tug'ilish darajasining haddan tashqari oshib ketishidir.

Kambag'allik dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida mavjud. Uning shakl va ko'rinishlari har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda olib borilayotgan siyosatiga muvofiq tarzda farqlanadi. Boshqacha aytganda, aholi daromadlari turlicha bo'lgan mamlakatlarda ularning o'rtasidagi farq kuchaygan sari tengsizlik kuchayadi.

Kambag'allik haqida so'z yuritganda, bu muammo faqat bitta inson bilan bog'liq emasligini anglash lozim. Kambag'allik jamiyat va iqtisodiyotda bir qator salbiy jarayonlarni yuzaga keltiradi. U ob'yektiv va sub'yektiv sabablar tufayli tug'ilish darajasining ortishiga olib keladi. Kambag'allar yetarli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklari bois, malaka va kasbiy ko'nikmalari past bo'lgan xodimlar safini to'ldiradilar. Jamiyat uchun zarur bo'lgan kasb egalari, xususan, o'qituvchi va shifokorlar yuqori daromad topish maqsadida o'z mutaxassisliklarini tark etib, boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishga majbur bo'ladilar. Kambag'allik jinoyatchilikning o'sishiga olib keladi, chunki ayrim hollarda tirikchilik uchun odamlar noqonuniy yo'llardan daromad topishga urinadilar. Bu holat jamiyatda daromadlar keskin tabaqalanishiga hamda ijtimoiy ziddiyatlarning chuqurlashuviga olib keladi.

Kambag'allik qanday sabab bilan yuzaga kelishidan qat'i nazar, u shakllangach, o'z-o'zidan kengaya boshlaydi. Aholining kambag'allikda yashovchi qatlamining ulushi qancha ko'p bo'lsa, mamlakatning "qashshoqlik tuzog'i"ga tushib qolish ehtimoli ham shunchalik yuqori bo'ladi. Chunki kambag'al aholi tovar sotib olish imkoniyatiga ega emas, natijada bozorlarda past sifatli, arzon mahsulotlar segmenti ustunlik qila boshlaydi. Aholi orasida to'lovga layoqatsiz qatlam kengayadi, ishlab chiqarishga investitsiya yetishmaydi, bu esa iqtisodiy o'sish va ish haqi oshirishning oldini oladi. Shuningdek, aholining katta qismi kambag'allikda yashayotgan mamlakatlar uchun kambag'allikdan chiqish yanada murakkablashadi [7].

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim olimlar kambag'allikni jamiyat va shaxs taraqqiyotiga turtki beruvchi, mavjudlik uchun kurash vositasi sifatida baholagan. Bu yondashuv ijtimoiy evolyusiya tarzida shakllanib, hozirda ushbu nuqtayi nazarni asosan liberal qarashdagi mutafakkirlar himoya qiladilar. Boshqa bir guruh olimlar esa kambag'allikni ijtimoiy illat sifatida baholab, barcha ne'matlarni odamlarga teng taqsimlash orqali uni bartaraf etish tarafdori bo'lib, ushbu yondashuvni "ijtimoiy tenglik" deb ataydilar. Bu g'oya sotsialistik qarashlar tarafdorlariga xosdir.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, kambag'allik deyarli barcha davlatlar uchun umumiy va tabiiy ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir. Biroq har bir mamlakatda u o'ziga xos shakl va ko'rinishga ega bo'ladi. Shu sababli, bir davlatda qo'llanilgan kambag'allikni kamaytirish usullarini boshqa davlatga aynan ko'chirib qo'llash ijobiy natija bermaydi. Buning sababi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, urf-odatlar, milliy an'analar va mehnat ko'nikmalaridagi farqlardir.

Aholi farovonligini oshirishning muhim sharti har bir fuqaro muayyan daromadga ega bo'lishi va bu daromadning doimiy ko'payib, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lishidir. Aholi daromadi pul va natura shaklida bo'lib, turli manbalar asosida shakllanadi. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali



daromad manbalarini kengaytirish kutilmoqda. Sababi, xususiy ishlab chiqarish subyektlari innovatsiyalarni joriy etishga, talabga tez moslashishga va ixtisoslashishga moyil bo'lib, daromad topish imkoniyatini kuchaytiradi.

Kambag'allikka qarshi kurashish borasidagi davlat siyosati iqtisodiy va siyosiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Bu borada quyidagilar ta'kidlangan: "Kambag'allarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni rejalashtirishning asosiy yo'nalishidir. Qashshoqlikka qarshi kurashish uchun investitsiyalar hajmini sezilarli darajada oshirish, kam ta'minlangan qatlamni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi chora-tadbirlarni joriy etish, iqtisodiyoti qoloq hududlarni rivojlantirish, bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'nalishini kuchaytirish va inklyuziv rivojlanishni ta'minlash zarur" (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari foizda [11]

Yo'nalishlar	2020 y	2021y	2022y	2023 y	2024 y
YalM (YaHM)	74,9	73,5	63,1	72,8	73,4
Sanoat	50,7	49,2	44,8	46,3	50,0
Qurilish	91,1	93,5	91,2	91,6	92,2
Eksport	52,0	49,6	45,2	44,9	49,3
Import	76,3	78,6	72,2	70,6	67,6
Savdo	90,2	93,6	94,9	94,4	92,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	96,2	96,2	94,6	94,2	93,1
Xizmatlar	66,4	67,8	66,3	66,2	75,6
Yuk tashish	91,3	94,0	92,0	92,7	92,0
Yuk aylanmasi	90,1	91,1	88,2	94,4	94,7
Yo'lovchi tashish	97,5	97,3	97,3	97,5	97,4
Yo'lovchi aylanmasi	96,1	91,3	94,3	95,6	95,8

Aholining turmush darajasini oshirish va farovonlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri sifatida ishsizlik darajasini pasaytirishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Bunda ishga joylashish imkoniyatini yaratuvchi, tegishli davlat organlari bilan bir qatorda fuqarolarning mas'uliyatini oshiruvchi, har bir insonning shaxsiy sharoitini hisobga oluvchi, o'ziga mustaqil yordam bera olmaydiganlarni qo'llab-quvvatlovchi faol va ta'sirchan siyosat yuritish, shuningdek, ushbu maqsadlarga jamiyat va xususiy sektor resurslarini jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hozirgi davrga kelib kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri — inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir.

Inklyuziv iqtisodiy o'sish — bu jamiyatning barcha qatlamlari, jumladan, zaif va marginal guruhlar uchun teng imkoniyatlar va imtiyozlarni yaratishga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasidir. Ushbu model barcha fuqarolarning iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etishi va farovonlikdan bahramand bo'lishini nazarda tutgan holda adolatli va barqaror o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida barqarorlikni ta'minlash yo'lida muhim yo'nalishlardan biri chiqindisiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda ekologik toza mahsulotlar yaratishdan iborat. Shu bois chiqindilarni samarali boshqarish orqali atrof-muhitning ifloslanishini kamaytirish va resurslardan qayta foydalanishga kichik biznes subyektlarini jalb etish zarur.

Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish — mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, bandlik muammosini hal qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik quyidagi vazifalarni bajarishi bilan ahamiyatlidir:

- bozor iqtisodiyotiga zarur bo'lgan moslashuvchanlikni ta'minlaydi;
- aholi moliyaviy va ishlab chiqarish resurslarini safarbar qiladi (mehnat va xomashyo resurslari);
- raqobat muhitini shakllantirishga hissa qo'shadi;
- ilmiy-texnik taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini amaliyotga joriy etadi;
- bandlik masalasini hal etadi;
- ijtimoiy zo'riqishni yumshatadi va bozor munosabatlarini demokratlashtiradi;
- insonlarda ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarish uchun rag'bat uyg'otadi;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar mehnatidan foydalanish imkonini yaratadi;



yosh mutaxassislarning malakasini oshirish va tajriba orttirishiga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish — respublikamizda keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya siyosatini izchil davom ettirishda asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda [9].

Kichik biznesning ijtimoiy funksiyalaridan biri — ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga boshqa ish beruvchilar e'tibor bermayotgan qo'shimcha mehnat resurslarini jalb qilishga ko'maklashishdir. Bunday resurslar qatoriga "ishchi kuchi" tovarining egasi sifatidagi mehnat potentsiali obyektiv omillar bilan cheklangan fuqarolar, masalan: pensionerlar, balog'at yoshiga yetmaganlar, mehnat layoqati cheklangan shaxslar, ko'p farzandli onalar va boshqalar kiradi. Oilaviy firmalarda mehnatga qisman layoqatli bo'lgan oila a'zolarining mehnatidan foydalaniladi. Yollanma mehnat asosida faoliyat yurituvchi kichik korxonalar kasanachilar, o'quvchi yoshlar va keksa fuqarolarning mehnatidan foydalanishga ko'proq moslashgan bo'ladi. Ushbu ikki guruhning aholi tarkibidagi ulushi ortib borayotganligini inobatga olsak, mazkur funksiyaning amaliy ahamiyati tobora ortib bormoqda [6].

Shunday qilib, bugungi kunda kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'nalishlariga jiddiy e'tibor qaratish davr talabi hisoblanadi. Bu sohalar orqali qo'shimcha ish o'rinlari yaratilmoqda, moliyaviy va biznes imkoniyatlardan foydalanish kengaymoqda, tadbirkorlik faolligi kuchaymoqda. Natijada, fuqarolarning turmush darajasini oshirish orqali qashshoqlikni kamaytirish va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniyati shakllanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholi o'rtasida kambag'allik darajasini kamaytirish bevosita fuqarolarni kambag'allikdan chiqish imkoniyatiga ishonirish, ularda intilish uyg'otish, boqimandalik kayfiyatidan xalos etish va bandlikni ta'minlash orqali amalga oshiriladi, deb hisoblaymiz.

Mamlakatda aholini ish bilan band qilish darajasini oshirishda kichik biznesning ijtimoiy funksiyasidan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bandlik dasturlarini ishlab chiqishda kichik tadbirkorlikning bozor sharoitlarida qo'llash mumkin bo'lgan yakka tartibdagi hamda ommaviy ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiluvchi dastaklarini imkon qadar to'liq qamrab olish maqsadga muvofiqdir.

Kambag'allikni qisqartirishning eng asosiy omillaridan biri yoshlarda iqtisodiy va tadbirkorlik tafakkurini kengaytirishdir. Jamiyat taraqqiyoti siyosati, davlat dasturlarini shakllantirish va ularni amalga oshirish jarayonida yoshlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Yoshlarning bozor iqtisodiyoti sharoitlarida faol bo'lishi uchun zarur imkoniyatlar yaratish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda g'oyatda muhim shart hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv iqtisodiy o'sish kambag'allikni kamaytirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyatning barcha a'zolari hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Камбағалликдан фаровонлик сари» дастурини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-330-сон Қарори, 23.09.2024 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Камбағалликни қисқартириш ва аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш борасидаги чора-тадбирларни янги босқичга олиб чиқиш тўғрисида» ги ПФ-143-сон Фармони. 23.09.2024 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Кичик ва ўрта бизнесни молиявий қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-193-сон Фармони 10.11.2023 й.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022 й. // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.
5. 2021-2030 йилларда камбағалликни қисқартириш стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги. —Т: 2021.
6. Н. Сафарова. Камбағалликни қисқартиришда ижтимоий-иқтисодий омиллар таъсирининг таҳлили. Т.: «Иқтисодиёт: таҳлиллар ва прогнозлар» журнал. — 2021. №1, — Б. 48.
7. Ғойибназаров Б, Турғунов Т. Аҳоли турмуш даражаси ва унинг Ўзбекистонда ривожланишининг статистик таҳлили. «Иқтисодиёт ва таълим» журналі. 2018. — №3.
8. Мустафақулов Ш.И., Муродуллаев Н., Хамидов Р. Ўзбекистонда камбағалликни аниқлаш ва қисқартириш давлат сиёсати даражасида. Т: «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журналі. 2020 йил, №1-сон. 68-85-б. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
9. Эрнazarова Н.Н. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish//«Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журналі. № 3, май-июнь, 2021 йил. 253-258 бетлар.
10. Статистик маълумотлар асосида муаллиф томонидан тайёрланди.
11. Институциональная среда малого предпринимательства и его социальные функции // <http://rf-biz.ru/8.php>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>